

**BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERAKTIV  
USULLARDAN FOYDALANISH METODIKASI****Homidova Gulmira**

Navoiy viloyati Nurota tumani 6- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6614927>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida interaktiv usullardan foydalanish metodikasi ko'rsatilgan. O'quvchilarning fanga qiziqishini oshirishda turli xil qiziqarli masalalardan foydalanish metodikasi ko'rsatib berilgan.

*Kalit so'zlar:* matematika, boshlang'ich sinf, interaktiv usullar, metodika, qiziqarli masalalar.

**ПРИЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ  
ЭЛЕМЕНТАРНОЙ МАТЕМАТИКИ**

*Аннотация.* В этой статье рассказывается, как использовать интерактивные методы на уроках элементарной математики. Представлены методы использования разнообразных интересных тем для повышения интереса учащихся к науке.

*Ключевые слова:* математика, начальная школа, интерактивные методы, методика, занимательные темы.

**METHODS OF USING INTERACTIVE METHODS IN ELEMENTARY  
MATHEMATICS LESSONS**

*Abstract.* This article describes how to use interactive methods in elementary math lessons. Methods of using a variety of interesting topics to increase students' interest in science are presented.

*Keywords:* math, elementary school, interactive methods, methodology, fun topics.

**KIRISH**

Erkin fikrlovchi, ijodkor xalqimiz g'oyalariga sodiq bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish bilan uzviy bog'liq. "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq- atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz", - debt a'kidlagan edi muhtaram Prezidentimiz I.Karimov. Shu nuqtai nazardan qaraganda fanlararo aloqadorlik qonuniyatlarining yaratilishi, aloqadorlik tizimining tarkib topishi boshlang'ich ta'limda istiqbolli vazifalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Matematikaning boshlang'ich sinflarda o'rgatilayotgan boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi hamda ushbu fanlararo aloqadorlik jihatlarini aniqlash, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil faollikni, fikrlashni shakllantirishda fanlararo aloqadorlik mexanizmidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Matematikadan tasavvur va bilimlarni o'zlashtirgan holda bosha fanlar bilan o'zaro aloqadorlik komponentlari qo'llanilganda, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda nazariya va amaliyot uyg'unligi asosida ta'lim- tarbiya jarayonini nazariy- metodologik va didaktik jihatdan ta'minlash, zamonaviy pedagogik, kompyuter, axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va amalda qo'llash ijobiy natijlarni beradi.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Qadimda Sharq allomalari ham o'z ilmiy meroslarida ta'limda matematikaning ahamiyati haqida noyob fikrlarni bayon etishgan. Jumladan, Sharqning buyuk allomasi Al-Kindiy o'zining asarlarida "Matematik bilimlarni o'rganish orqali insonning yoshlikdan axloqiy fazilatlarini rivojlantiriladi",- deb ta'kidlagan edi.

Boshlang'ich sinfda matematika bolalarning ongi, nutqi va savodxonligi rivojlanishiga yordam beradi. Matematika darslarida o'quvchilar yakka holda, juft-juft va guruhlarda ta'lim oladilar va tarbiyalanadilar. Ushbu jarayonda o'quvchilar matematikadan dastlabki boshlang'ich bilimlarni egallaydilar. Bu bilimlarni egallash bolalarda hayotiy tasavvurlarini va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffaqiyat bilan o'qitish o'qituvchidan nafaqat uslubiy mahoratni, balki matematik tushunchalar talab etadi.

Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarda matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun turli xil o'yinlar, mantiqiy misol-masalalar, qiziqarli boshqotirmalar yechishga o'rgatishi kerak. Matematik o'yinlarning fanlar bilan bog'liqligi ham bola tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega

### TADVIQOT NATIJALARI

"Sonli maqollar" o'yini orqali o'quvchilar maqoldagi raqamlarni topadi va sonlarni so'zlarga qo'shib o'qishni o'rganadi, maqoldagi sonlar yig'indisini topishga harakat qiladi

-Sanamay 8 dema!	8
-1 yil tut ekan kishi, 100 yil gavhar teradi.	$1+100=101$
-1 mayizni 40 kishi bo'lib yebdi.	$1+40=41$
-7 o'lchab 1 kes.	$7+1=8$
-2 15 – 1 30.	$2 \times 15 + 1 \times 30 = 30 + 30 = 60$
-Bilagi zo'r - 1ni yiqitar, bilimi zo'r 1000 ni	$1+1000=1001$
- 6 ovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar,	
7 ovlon tugal bo'lsa, tepadagin uhdidir.	$6+7=13$
-1 tup tok eksang, 1 tup tol ek.	$1+1=2$
-Ko'p og'iz 1 bo'lsa 1 og'iz yengilar.	$1+1=2$
-1 kun tuz ichgan joyingga 40 kun salom ber.	$1+40=41$
-1 niki 1000 ga, 1000 niki tumanga.	$1000+1000=2000$
-1 kattaning gapiga kir, 1 kichikning.	$1+1=2$
-1 tomchi suv chumoliga daryo bo'lur ko'rinibdi.	1
-1 ko'rgan tanish, 2 ko'rgan qarindosh.	$1+2=3$
-1 tariqdan bo'tqa bo'lmas.	1
-1 ko'z bilan yosh to'kib, 1 ko'z bilan im qoqma.	$1+1=2$
-Uyida 1 chaqasi yo'q, belida 1 dasta kalit.	$1+1=2$
-1 molni 3 marta so'ymaydilar.	$1+3=4$
-1 kun burun eksang, 1 hafta burun o'rasan.	$1+1=2$
-1 ni kessang, 10 ni ek.	$1+10=11$
-1 yigitga 70 hunar ham oz.	$1+70=71$
- Yetimning haqqi 7 daryoni quritadi.	7
-Bola 7 ga kirguncha, yerdan 70 tayoq yer.	$7+70=77$

**MUHOKAMA****Navbat quvnoq topishmoqlarga.**

O'qituvchi savoli: Bir qovunni o'n bo'lakka  
Teppa- teng bo'lib qo'ydim.  
Endi mening savolimga  
Quloq tut, bilib qo'yg'in,  
Biri- biridan totli,  
Dimog'ingni yoradi.  
Bir tilikni senga bersam,  
Menga nechta qoladi?



O'quvchi javobi: Agar bitta bo'lakni  
Menga bersang qo'qisdan.  
Ochko'zliging tufayli  
Senda qolar to'qqizta.  $10-1=9$  tilik qoladi

O'qituvchi savoli: Uch juft qiz-u, bir o'g'il,  
Uch tupdan gul ekishdi.  
Har bir gulning ustiga  
Bir chelak suv to'kishdi.  
Suvning uchdan birini  
Tashidi chevar qizlar.  
Qolganini o'g'illar.  
Qani top, Barno, Safar,  
Birgalashib o'g'il- qiz  
Nechta gul ko'chat ekkan?  
Eng mehnatsevar o'g'il  
Necha chelak suv to'kkan?



O'quvchi javobi: 1)  $6+1=7$  2)  $7 \times 3=21$  3  
21 ta gul ko'chat ekkan, 21 chelak suv to'kkan.

O'qituvchi savoli: Toqqa chiqdik 40 bola,  
4 dan biri qiz bola.  
O'g'illarning har biri  
Terdi 10 tadan lola  
Qizlar terdi 100 dona,  
Ayt- chi, qizim Hilola,  
Nechtadir jami lola?

O'quvchi javobi: 1)  $40:4=10$  ta qiz bola  
2)  $40-10=30$  ta o'g'il bola  
3)  $10 \times 10=100$  ta lola qizlar terdi  
4)  $30 \times 10=300$  ta o'g'illar terdi  
5)  $100+300=400$  ta jami lola.



O'qituvchi savoli: O' n tup daraxt bor edi  
Qo'shni bog'da.  
Sakkiztasin keddilar,  
Kuzak chog'da.  
Chorbog'da yana qancha  
Qoldi daraxt?  
To'g'ri javob topa olmay  
Bo'lsin

karaxt.



O'quvchi javobi: O'n tup daraxt bor bo'lsa,  
Qo'shni bog'da.  
Sakkiztasin kessalar,  
Chorbog'da qoldi yana  
Ikki daraxt.

$$10 - 8 = 2 \text{ daraxt}$$

O'qituvchi savoli: Fermada 300 quyon,  
Chopishadi u yon- bu yon.  
Yuzi ketdi bir yonga,  
Yuzi boshqa tomonga.  
O'ni ketdi u yonga,  
Biri keldi bu yonga  
Qarab qo'ying o'rtadagi quyonga,



O'quvchi javobi:  $300 - 100 - 100 - 10 + 1 = 200 - 100 - 10 + 1 = 100 - 10 + 1 = 90 + 1 = 91$  ta quyon qoldi.

“Qiziqarli kvadratlar”ga sonlarni shunday joylashtiring-ki ko'rsatilgan son hosil bo'lsin,sonlar 2 marta yozilmasin.

6				3		2		
		5			9			1
							8	

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi kabi “O'ylab-o'yna, o'ynab-o'yla” ydigan qiziqarli o'yinlar bolaning yanada fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi.

Ushbu matematik misollarni 1-2-3-4- sinf o`quvchilari yechishini tavsiya qilaman, chunki ularning aqli yana charxlanadi, fikri teranlashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Matematika. 3-sinflar uchun darslik. Toshkent-2013-y.
2. Matematika. 4-sinflar uchun darslik. Toshkent-2013-y.
3. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. kutubxona.adu.uz